

## Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi

Dildora Yuldasheva

Gulnoza Soliyeva

Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat ona tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Ma'naviy-axloqiy tarbiya yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy xulqni boshqara olishi bilan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqola orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, tub mohiyati, tushunchalari batafsil tushuntirildi, misollar orqali dalillandi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, axloq, ma'naviy-axloqiy tarbiya, xulq-atvor mas'uliyat

## The issue of spiritual and moral education in the family

Dildora Yuldasheva

Gulnoza Soliyeva

Tashkent State University of Mother Language and Literature named after

Alisher Navoi

**Abstract:** Spiritual and moral education is considered a component of the single social education process, and it is relevant because it can control social behavior in the development of society. Through this article, the specific features, essence, and concepts of spiritual and moral education were explained in detail and proved through examples.

**Keywords:** education, morality, spiritual and moral education, behavioral responsibility

Axloq va tarbiya masalalari ijtimoiy hayotning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Chunki bu jarayon jamiyatda o'zini tutishi, xatti-harakatlarini belgilab beradi. Aynan mazkur jarayonda ma'naviyat axloq va tarbiya bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ma'nabiyat tushunchasining mazmun mohiyatini yoritadigan bo'lsak, bu jarayon inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha ekanligini, u kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga olishi bayon qilinadi. Ma'naviy-axloq o'zaro ichki aloqadorlikka ega. Axloq-ma'naviyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida jamiyatda shaxs kamoloting yuqori bosqichi sifatida ma'lum. Axloq-xulq-atvor ma'nosini bildirishi bilan birgaijtimoiy

munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi qonun-qoidalar majmui ham hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida axloq-ma'naviyatning o'zagi deb baholaydi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladagina iborat emasligi, axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik deya belgilab berilgan.

Xo'sh, ma'naviy-axloqiy tarbiya nima? Ma'naviy-axloqiy tarbiya-ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, jamiyatda insonlar xulqi va xatti-harakatlarining boshqarilishida turli me'yorlar, tamoyillar, ideallarni ishlab chiqishi va boshqarishi mumkin. Mazkur jarayonlar esa Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tub mohiyati hozirgi ijtimoiy shart-sharoitda jamiyat istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilish, o'zligini anglash, vatani va xalqining nimaga qodirligini, o'z qadr-qimmatini bilishi, yuksak g'oya va kashfiyotlarni to'g'ri yo'naltira bilishdan iboratdir. Hozirgi globallashuv zamonida ham eng muhim muammolardan biri shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotidir. Aynan mana shu xislatni shakllantirish bugun ko'proq o'qituvchilar zimmasiga yuklanmoqda. Aslida savol tug'ilishi mumkin, o'quvchilarning, umuman shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi qachondan boshlanishi kerak? Bu jarayon faqatgina maktabda emas, balki bola tug'ilishi bilan oilada boshlanishi, so'ngra malakali va tajribali o'qituvchilar tomonidan maktabda to'ldirilib, davom ettirilishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda bir qancha o'ziga xos muhim vazifalar ishlab chiqilgan:

- Shaxsni bolaligidan axloqiy his-tuyg'ular va xatti harakatlar bilan tarbiyalash;
- Xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- Axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ham an'anaviy, ham zamonaviy tamoyillari mavjud. An'anaviy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishiga o'quvchi shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyani hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish.

Bugungi kunga kelib ma'naviy-axloqiy tarbiyaning zamonaviy tamoyillari ham paydo bo'ldiki, bu o'qituvchi va o'quvchi subyekt-subyekt rida bo'lib, ular o'rtasidagi muloqot jonli bo'lib, diolog shakliga ko'chdi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga sharqda azaldan alohida e'tibor qaratilgan. Buni biz Yusuf Xos Hojib, Yassaviy hikmatli o'gitlaridan, Alisher Navoiy hikmatlaridan ham bilishimiz mumkin. Sharq xalqlarida tilni tiyishlik, odamlar orasida o'zini tutishlik,

ovqat vaqtidagi odob, umuman, yurish-turish qoidalari ishlab chiqilib, yozilmagan qoidalarga aylantirilgan. Shuningdek azaldanshakllanib ulgurgan turli urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'inarimiz ham borki, yoshlnri ham nazariy, amaliy xatti-harakatlarimiz bilan tarbiyalashimiz, ta'lim va tarbiyani uyg'un shaklda olib borishimizga zamin yaratishimiz mumkin. Albatta oila va shu qatori maktab va o'qituvchilarning asosiy o'rni mavjud. Agar o'qituvchi qanchalik bilimli bo'lsa-da, ma'naviyati va axloqi bilan namuna korsata olmasa, barchaxatti-harakatlar yo'qqa chiqishi mumkin. Chunki ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda nafaqat o'rgatish va shu bilan birga o'rnak va namuna bo'lishi orqali erishiladi. Ayniqsa hozirgi globallashuv asri bo'lgan va virtual olam rivojlangan bir davrda insonning shaxs sifatida tanazzulga uchrashining oldini olish uchun ham to'g'ri axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ham oilada, ham ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalarini belgilab olish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati tarbiyalanuvchi shaxslarda qadriyat munosabatlari tizimida namoyon bo'ladigan va xatti-harakatlar, mulohazalar, baholashlarda o'zini ko'rsatadigan ijobiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tursunov Y., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi-Toshkent, 1997.
2. Munavvarov A. Pedagogika.-Tshkent, 1996.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent, 2008.
4. O'rinova P. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiya. Scientific progress. Vol.3, issue 4. 2022.
5. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
6. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадиий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. O'zMU xabarlar. Toshkent – 2022. №1/5.
7. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.
8. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma" Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.
9. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)

10. 6.Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. **ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES**,3, 734-745 (2023).

11. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

12. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

13. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. **INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION**. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.